

**O'QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHINI O'STIRISHDASAMARALI INTERAKTIV  
METODLAR O'RNI.**

**Norbekova Gulzoda Mahmud qizi**

*Navoiy viloyati Xatirchi tuman XTBga qarashli*

*31-sonli mактабning boshlang`ich sinf o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqola orqali o`quvchilarni mustaqil fikrlash doiralarini kengaytirish maqsadida metodlardan foydalanish. Metodlar vogelikka xos bo`lgan qonuniyatlarni anglab yetish, bilib olishga imkon beruvchi bir uslub.

**Kalit so'zlar:** raqamli texnalogiya, metodlar, decoder, interfaol, ta'lif tizimi, AKT.

**Annotation:** through this article, students can benefit from methods in order to expand their independent thinking.

**Key words:** digital technology, methods, decoder, interactive, educational system ICT

**Аннотация:** благодаря этой статье учащиеся извлекают пользу из методов, чтобы расширить свое независимое мышление.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, методы, декодер, интерактив, образовательная система, ИКТ.

Bugungi kunda mustaqil yurtimiz kelajagi bo`lgan yosh avlodga ta'lif-tarbiya berish, ularni vatanimizga munosib farzandlar qilib tarbiyalash, vatanimiz ravnaqiy yo`lida va rivojlanishiga hissa qo`sha oladigan farzandlar bo`lib yetishtirish maqsadida ta'lif tizimida tubdan o`zgarishlar bo`lmoqda.

Jumladan, 2021-2022 o`quv yilidan umumiyl o`rta ta'lif maktablarining 1-2 sinf o`quvchilarini "Milliy o`quv dasturi" asosida o`qitilishi bunga yorqin misol bo`la oladi.

Ta'lifning bu jarayonga o`tishi, oldingi ta'lif tizimidan tubdan o`zgarish, ya`ni 1-2 sinflarda ona tili va o`qish darslarini birligida onatili va o`qish savodxonligi darsi asosida o`tilishi bilan asoslandi. Bunda asosiy maqsad o`quvchilar onati va o`qish savodxonligi darslarida hayotiy bilim, ko`nikma va malaka orqali mustaqil fikrlashga, o`z fikrini erkin namoyon eta olishga, kretaiv yondashuvga, berilgan amaliy topshiriqlarni o`zi va ustozni yordamida bajara olishi, berilgan ma'lumotlar asosida o`z fikrini og`zaki va yozma tarzda bayon qilingan holda sinfda tahlil qila olishi mumkin. Men o`zim ta'lif berayotgan 1-“B” sinfdagi 18 nafar o`quvchilar bilan o`quv yili davomida yangi darsliklar asosida juda ko`plab samarali natijalarga erishgan holda darslarni olib bordim.

Sinf o`quvchilarim oldingi o`quvchilardan farqli o`laroq bugun 1-sinfdayoq erkinlikka, o`zining ichki qobiliyatini, istedodini namoyon eta oladigan bo`ldi. Nafaqat dars jarayonlarida balki sinfda va sinfdan tashqari o`tkazilgan tadbir va tanlovlarda faol ishtiroy etdilar. O`quvchilar bilan darsda va darsdan so`ng olib fan va sport

to`garaklarida olib borilgan mashg`ulotlar natijasida o`quvchilar maktab, tuman , viloyat va respublika miqiyosida o`z natijalari bilan munosib o`rnlarni egallahdi.

Amalga oshirilayotgan ishlar , o`quvchilarni mustaqil fikrlash va salohiyatini oshirish.So'ngi 5 yillikda maktab ta'lif tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar,innovatsiyalar,yangi-yangi pedagogik-psixalogik tushunchalar,interfaol metodlarni ta'lif beruvchi tomonidan o'zlashtirilib va qo'llanib borilishi, ta'lif mazmunini tubdan o'zgartirib yubordi desak mubolag'a bo'lmaydi.Bundan tashqari raqamli texnalogiya ham ta'lif tizimiga singib bormoqda.

Prizidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham ta'lif tizimiga alohida e'tibor qaratayotganligi bijiz emas., O'zbekiston kelajagi yoshlar qo'lida shunday ekan bor e'tibor ta'lifni tubdan ihlos qilish ta'lif tizimini rivojlantirishga qaratilayotgan bir paytda 2023-yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'lif yili" deb nomlanishi ham bijiz emas buning barchasi ta'lif tizimini yanada rivoj va ravnaq toptirishdan dalolat beradi.Bunda nafaqat o'quvchi yoshlar o'zlarini ihlos qilibgina qolmasdan o'qituvchilar ham o'z ustida ko'proq ishlash imkon yaratdi.

Hozirgi kunda,jahondan ortda qolmagan holda o'qituvchi zamonaviy talablarga mos bo'lmg'i kerak ya'ni o'z ustida ishlashi kerak.Bugunning yoshlari ham rivojlanib dunyodagi boshqa davlatlardan ortda qolmagan, zamon talabi bilan ham nafas, til biluvchi yoshlar bo'lib yetishmoqda.Muhtaram pizidentimiz talabi ham shunday, o'quvchi ikki tilni bildimi,unda o'qituvchi to'rt yoki undanda salohiyatl, til biluvchi zamonaviy talablarga javob beradigan yetuk pedagog bo'lmg'i lozim.

Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida " aktyor" emas,aksincha " rejessior" bo'lishi kerakligini anglashi lozim, u o'z o'quvchi talabalarini fanga ijodkorlik nuqtai nazari bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta,yangi pedagogik texnalogiya metodlardan foydalangan holda darslarni samarali, mazmunli tashkil etishi kerak bo'ladi.Shaxsan men dars jarayonida o'quvchilarim bilan turli metodlardan foydalangan holda dars jarayonini samarali, qiziqarli olib borishga harakat qilaman va shu o'rinda bir metodga to'xtalib o'tmoqchiman bu metod bizda hali ko'p foydalanimagan ,sababi ko'plab izlanishlarda bo'lganimda bu metod haqida ko'p ma'lumot yo'qligining guvohi bo'lganman .Bu qanday metod ekan deb qiziqdingizmi? Bu metod

#### **DECODER metodi.**

Bir qarashda bu metod murakkabdir ko'rinishi mumkin.

Aslini olganda esa bu metodni bilgan va bu metoddan foydalangan bola miyasining ikkala yarim shar qismi ham ishga tushadi.Bola miyasidagi tugunlar qanchalik ko'paygani sari bolaning o'yash qobiliyati, fikrlash tezligi, yaratuvchanlik mahorati tobora kengayib boradi.

*Aa Bb Dd Ee Ff Gg Hh Ii Jj Kk Ll Mm Nn Oo Pp Qq Rr Ss Tt Uu Vv Xx Yy Zz  
O'o' G'g' Shsh Ch ch Ng ng '( tutuq belgisi)*

Alifbodagi harflarga 1 dan 30 gacha bo'lgan sonlarni kodlab chiqamiz va o'quvchilar avvalam bor alifbodagi harflarni joylashuvini yaxshilab bilib olishsagina bu kodlarni qiynalmasdan yecha olishadi.

Masalan: 21,1,19,1,13, 25,24,2,4,19,8,18,19,14,13 ana shunday raqamlar nima demoqchi ekanligini topish bolalar uchun juda ham qiziq to'g'rimi, shunday ekan Decoder ( kodni yechuvchi ) metoddan dars jarayonlarimizda hechbikkilanmasdan foydalansak dars jarayonining anchagina samaradorligi oshadi. Bundan tashqari barcha o'quvchi darsga qatnashadi. Raqamlar ortida qanday so'zlar yashiringanligini topdingizmi?

Ha albatta, VATAN hamda O'ZBEKISTON so'zlari berkitilgan edi.

Bundan tashqari yana bir qancha metodlar bilan darsni mazmunli o'tqazish mumkin .

### " OQ QOG'ÖZ "metodi

Agar bizni sinf xonamizda elektron doska, hech qanday vedio projektorlar yoki kompyuterlar bo'limganda albatta bizga oq qog'oz yordamga keladi .O'quvchilar ikki guruhga bo'linadilar .Ikki qatordan o'tirgan o'quvchilar parta boshidan o'tilgan darsda nimalar o'tilganligi haqida bitta bitta misollar yozishadi, yozilgan misol takroran yozilmasligi kerak ana shunda o'quvchi chuqurroq o'ylaydi va yozilgan misollarni o'qib yodidan ko'tarilgan narsalarni yodga oladi va eng ahamiyatli tomoni oxirgi partadagi tortinchoq yoki jim o'tiradigan o'quvchi ham o'z fikrini erkin bayon etadi bu metod tajriba sinovimdan o'tgan ishonavering zo'r natijalar beradi.Bu metod uchun besh daqiqa ajratsangiz bo'lgani.

O`quv yili davomida tuman XTB ning 31-umumiyl o'rta ta'lim maktabi 1-"B" sinf o'quvchilari bilan biz 2022- yil sentyabr oyida o'tkazilgan "Ibn Sino bobo ulashar-davo" mavzusida ham tadbirlar o'tqazildi.Bundan tashqari 2023-yil 9-yanvar kuni Xatirchi xalq ta'limida bo'lib o'tgan "Ijodkor metodbirlashma" nomli ko'rik- tanlovda bizning jamoa faxrli birinchi o'rinni egalladik va viloyatga yo'llanmani qo'lga kiritdik.

Bugungi kunda o`quvchilarga dars berish jarayonini oddiylikdan yiroqlashgan holda noan'anaviy usullar orqali , AKTdan foydalangan holda tashkil etish mening asosiy maqsadim hisoblanadi. Shuning uchun 2022-yildan ta'lim sohasida pedagoglarini har yili o`z ustilarida ishlashlari uchun joriy etilgan "Onlayn" va "Oflayn" malaka oshirish kurslaridan ‘ “Onlayn” malaka oshirish kursida o`qib sertifikat oldim. O`qish jarayonida o`zimga kerakli ma'lumotlarni olgan holga, dars jarayonlarida AKTdan unumli foydalanishni o`rganib, har bir dars uchun taqdimot yaratib, o`quvchilarni mustaqil ishlashlari uchun qo'shimcha topshiriqlar tayyorladim. Darslarni samarali tashkil etishda , vaqtadan unumli foydalanishda, o`quvchilarni fanga bo`lgan qiziqishlarini oshirishda, dars jarayonida o`quvchilar faol ishtirok etib, yaxshi natijalarga erishiga , o`quvchilarning kreativ fikrlash doiralarini kengaytirishga harakat qilmoqdaman.

Bugungi kunda vatanimizni xalqaro maydondagi obro`-e'tiborini yuksaltirish va shon –shuhratini oshirishga munosib hissa qo'shayotgan , yurtimiz ijtimoiy – siyosiy hayotidagi faolligi va tashabbuskorligi bilan tengdoshlariga o`rnak bo`layotgan ,shuningdek, o`qishda va mehnat faoliyatida yutuqlarga ersishgan o`qituvchilarni munosib taqdirlagan holda rag'batlantirilib turilsa menimcha ishiga bo'lga qiziqlishi , bundan tashqari kasbiga bo'lgan muhabbati tobora ortadi deb o'layman

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O`z ish tajribam.